

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA'LIMI VAZIRLIGI

**SAMARQAND VILOYATI XALQ TA'LIMI XODIMLARINI QAYTA
TAYYORLASH VA ULARNING MALAKASINI OSHIRISH HUDUDiy
MARKAZI**

**ANIQ VA TABIIY FANLAR METODIKASI
AMIRULLAYEVA BARNO ABDULHAQOVNAVI SINFDA**

FIZIKA FANIDAN NAZORAT ISHLARI YECHIMI

*(umumta'lim maktablarining fizika fani o'qituvchilari uchun
uslubiy ko'rsatma)*

Samarqand – 2021

Fizika fanidan VI sinfdan nazorat ishlari yechimi. *(umumta'lim maktablarining fizika fani o'qituvchilari uchun uslubiy ko'rsatma)* Samarqand, 2021.

Tuzuvchi: **Amirullayeva B.** SamVXTXQTMOHM
Aniq va tabiiy fanlar metodikasi
kafedrasida o'qituvchisi

Taqrizchilar: **Jumaboyev A.** - SamDU fizika
fakulteti professori
Yunusova N. - SamVXTXQTMOHM
assistenti

Ushbu uslubiy ko'rsatmada umumta'lim maktablarida, fizika fanidan nazorat ishlarini bajarishda foydalanish uchun metodik ko'rsatmalar berilgan bo'lib, umumta'lim maktablarining fizika fani o'qituvchilariga mo'ljallangan.

Ushbu uslubiy ko'rsatma Samarqand viloyat xalq ta'limi xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish hududiy markazi Ilmiy kengashining 2021 yil 30- yanvar 1/3-6 sonli qaroriga binoan nashrga tavsiya etilgan.

Kirish

Bugungi kunda biz mamlakatimizning istiqboli yosh avlod qanday tarbiya topishiga, qanday bilim, ko'nikma va malakalarga ega bo'lishiga, ularning bilimlarini qanday baholashni hamisha yodda tutishimiz kerak. Ularning bilimlarini reyting baholash usuli bilan baholash davomida biz ularni yoshiga va mavzusiga to'g'ri keladigan turli xildagi test nazorat topshiriqlarini tuzishimiz mumkin. O'quvchilarning bilimini nazorat qilish maqsadida nazorat testlari o'tkaziladi. 5–9 sinf o'quvchilarining bilimlari sifatini nazorat qilishning reyting tizimi to'g'risidagi "Nizom" da o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalari joriy, oraliq, bosqichli va yakuniy nazoratdan o'tkazilib aniqlanishi belgilangan. Joriy nazorat kundalik so'rovlar shaklida o'tkaziladi. Oraliq nazorat ma'lum bir bob (bo'lim) tugaganidan so'ng o'tkaziladi. Uning o'tkazilish vaqti va shakli taqvim-mavzu rejada belgilab beriladi. Ushbu uslubiy ko'rsatma fizika fanidan kompetensiyaviy yondoshuv asosidagi DTS asosida tuzildi.

Unda 6 sinfda Fizika fani bo'yicha o'quv dasturi asosida o'quvchilarning har bir dars oxirida o'zlashtirishi zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalari, o'tkaziladigan nazorat ishlari bo'yicha namunaviy test topshiriqlari, amaliy mashg'ulotlar namunalari keltirilgan. Uslubiy ko'rsatmada shuningdek nazorat test topshiriqlarining javob namunalari ham keltirilgan. Uslubiy ko'rsatmada keltirilgan nazorat ishlari namunaviy bo'lib o'qituvchi unga ijodiy yondoshgan holda tegishli o'zgartirishlar kiritishi yoki alternativ variantlarini ishlab chiqishi mumkin. Uslubiy ko'rsatmada keltirilgan namunaviy nazorat materiallarini baholash mezonlaridan joriy nazorat o'tkazishda ham foydalanish mumkin.

SANA: _____

NAZORAT ISHI №1

Nazorat shakli: Test o'tkazish.

1. Klassik Fizika fani asoschisi kim?

A) Nyuton B) Paskal C) Aristotel D) Joul

2. Molekula so'zining ma'nosi nimani anglatadi?

A) Modda B) Materiya
C) Qattiq jismlar D) Kichik massa

3. Moddalar qanday tuzilgan?

A) Moddalarning tuzilishi ularning holatiga bog'liq
B) Moddalar juda mayda zarralardan tuzilgan
C) Moddalar asosan yaxlit holatda uchraydi
D) Moddalarning tuzilishi ularning haroratiga bog'liq

4. «Atom ichida bo'shliq va bo'lakchalar bo'lib, bu bo'lakchalarning hammasi harakatda bo'ladi». Bu jumlar qaysi allomaga tegishli?

A) Demokrit B) A.R. Beruniy
C) Abu Bakr Ar-Roziy D) Ibn Sino

5. O'simlik moyi cheksiz yoyila oladimi?

A) Yoyila olmaydi
B) Moy qatlam qalinligi eng kichik zarraning ko'ndalang kesimiga tenglashguncha yoyiladi
C) Yoyilishi yoki yoyilmasligi moyning holatiga bog'liq emas
D) Yoyilishi ham yoyilmasligi ham mumkin

6. Quyidagi moddalardan qaysi birining molekulasi bitta atomdan tashkil topgan?

A) Suv B) Kislorod
C) Osh tuzi D) Karbonat angidrid

7. Brown harakati deb qanday harakatga aytiladi.

A) Molekulalarning to'xtovsiz harakati
B) Molekulalarning to'xtovsiz va tartibsiz harakati
C) Suyuqlik va gazlarda jism mayda zarrachalarining tartibsiz harakati
D) Molekulalarning tartibsiz harakati.

8. Gapni to'ldiring. Bir modda molekulalarining ikkinchi modda molekulalari orasiga kirishuvi.... deyiladi?

A) ...Brown harakati B) ...diffuziya
C) ...issiqliqdan kengayish D) ...bug'lanish

9. Modda xususiy hajmga ega lekin shaklga ega emas, u qanday holat?
 A) Gaz B) Suyuqlik
 C) Qattiq D) Har uchala holatda ham hususiy hajmga ega lekin shaklga ega emas
10. Bir xil temperaturadagi qaysi jismlarda diffuziya tezroq boradi?
 A) Qattiq jismlarda B) Gazlarda
 C) Suyuqliklarda D) Gazsimon va suyuq jismlarda
11. Inson terisi orqali organizmga havodagi kislorod qanday hodisa tufayli kiradi?
 A) Diffuziya B) Brown harakati
 C) Bug`lanish D) Barcha javob to`g`ri
12. Jumlani davom ettiring. Qattiq jism.....
 A) ...xususiy shaklga va hajmga ega emas
 B) ...xususiy hajmga ega lekin shaklga ega emas
 C) ...xususiy hajmga va shaklga ega
 D) ...xususiy shaklga ega emas
13. Qattiq jism molekulalari (atomlari) qanday harakatda bo`ladi?
 A) Tartibsiz ilgarilanma harakat qiladi
 B) Aylanma harakat qiladi
 C) Tebranma harakat qiladi
 D) Aylanma va tebranma harakat qiladi
14. Molekulalarning muhim xossalari nimadan iborat?
 A) O`zaro ta`sir B) Harakat
 C) O`zaro ta`sir va harakat D) Tortishish.
15. Qanday suyuqlik qattiq holatga o`tganda boshqacha nom oladi?
 A) Sut B) Suv
 C) Yog` D) Spirt
16. Nima sababdan molekular harakat tufayli suyuqlik molekulalari o`z-o`zidan har tomonga tarqalib ketmaydi?
 A) Atmosfera bosimi tufayli
 B) Hidrostatik bosim tufayli
 C) O`zaro tortishish kuchlari mavjudligi sababli
 D) Diffuziya tufayli
17. Temperaturalari teng bo`lgan suyuqlik va gaz molekulalari orasidagi masofa bir xilmi?
 A) Bir xil emas. Suyuqliklarda masofa gazlardagiga nisbatan katta
 B) Bir xil. Chunki temperaturalar bir xil
 C) Bir xil emas. Suyuqliklarda masofa gazlardagiga nisbatan kichik

- D) Bir xil. Agar gaz va suyuqlik turini tanlab olinsa
18. Qaysi holda qand suvda tezroq eriydi: qaynoq suvdami yoki sovuq suvdami?
- A) Qaynoq suvda. Chunki suv molekulalarining tezligi katta
- B) Sovuq suvda. Chunki qand molekulalarining harakatiga suv molekulalari kam qarshilik qiladi
- C) Qaynoq suvda. Chunki qand va suv molekulalarining harakat tezligi katta
- D) Sovuq suvda. Chunki suv molekulalarining harakat tezligi kichik
19. Moddaning qaysi holatida uni siqib, hajmini kamaytirish mumkin?
1. Gaz 2. Suyuqlik 3. Qattiq jism
- A) 1; B) 2; C) 3; D) 1,2, va 3.
20. Suv molekulasida nechta kislorod atomi bor?
- A) 1 ta B) 2 ta C) 3 ta D) 4 ta

1-nazorat test javoblari

S	1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11	12	13
J	A	D	B	C	B	B	C	B	B	B	A	C	C

14	15	16	17	18	19	20
C	B	C	C	A	A	A

SANA:_____

NAZORAT ISHI №2

Nazorat shakli: Test o'tkazish.

1. Shayinli tarozida jismning qaysi parametri o'lchanadi?
- A) Hajm B) Kuch
C) Massa D) Vaqt
2. Keltirilgan ifodalardan qaysi biri modda zichligini hisoblash formulasini ifodalaydi?
- A) $v=s/t$ B) $\rho=m/V$ C) $m=V\rho$ D) $V=m/\rho$

3. Jumlani davom ettiring. "Moddanning zichligini aniqlash uchun... kerak".

- A) ...massasini hajmiga bo'lish
- B) ...massasin hajmiga ko'paytirish
- C) ...massasini hajmiga qo'shish
- D) ...hajmini massasiga bo'lish

4. Menzurka yordamida nimani o'lchash mumkin?

- A) Suyuqlik zichligini
- B) Suyuqlik hajmi
- C) Suyuqlik massasi
- D) Suyuqlik massasi va hajmi

5. Hajmi 10 sm^3 bo'lgan suvning massasini aniqlang? $\rho = 1 \text{ g/sm}^3$

- A) 10 g
- B) 100 g
- C) 1 g
- D) 1000 g

6. Bir dona kartoshkaning massasi 59 g bo'lib, hajmi 50 sm^3 da teng. Kartoshkaning zichligini aniqlang.

- A) 2950 g/sm^3
- B) $11,8 \text{ g/sm}^3$
- C) $1,18 \text{ g/sm}^3$
- D) 118 g/sm^3

7. Massasi 30 kg bo'lgan suvning hajmini toping. $\rho = 1 \text{ g/sm}^3$

- A) $0,003 \text{ m}^3$
- B) $0,03 \text{ m}^3$
- C) 30 m^3
- D) 300 m^3

8. Mexanik harakat deb qanday harakatga aytiladi?

- A) Jismning harakat traektoriyasining uzunligiga aytiladi
- B) Jismlarning vaqt o'tishi bilan fazoda joylashgan o'rnining boshqa jismlarga nisbatan o'zgarishiga
- C) Jismlar harakati davomida iz qoldirishi
- D) Vaqt birligi ichida bosib o'tilgan yolgacha aytiladi

9. Qanday harakat tekis harakat deb aytiladi?

- A) Teng vaqtlar ichida jism bir xil masofani bosib o'tsa
- B) Teng vaqtlar ichida jism har xil masofani bosib o'tsa
- C) Teng vaqtlar ichida jism harakati o'zgarmasa
- D) Jism har xil vaqt ichida bir xil yo'lni bosib o'tsa

10. Jismning harakat trayektoriyasining uzunligiga... deyiladi?

- A) ..yo'l
- B) ...vaqt
- C) ...tezlik
- D)kuch

11. Xalqaro birliklar sistemasida yo'lning birligi nima?

- A) km
- B) metr
- C) mm
- D) sm

12. Quyidagilardan qaysi birining birligi asosiy fizik kattalik hisoblanadi?

- A) zichlik
- B) kuch
- C) hajm
- D) vaqt

13. Yerdan Quyoshgacha bo'lgan masofa nechaga teng.

- A) $150\,000\,000 \text{ km}$
- B) 15000000 m
- C) 384000 km
- D) $150\,000\,000 \text{ m}$

14. 200 dm necha mm ga teng.

- A) 200 mm B) 20000 mm C) 2000mm D) 20mm

15. Zichlik birligini ko'rsating.

- A) N/m² B) kg C) m D) kg/sm³

16. Alyuminiyning zichligi 2,7g/sm³ ga teng. Uni kg/m³ da ifodalang

- A) 2700 kg/m³ B) 270 kg/m³ C) 27 kg/m³ D) 200 kg/m³

17. Paxta presslanganda uning hajmi ixchamlashadi, bunda uning massasi qanday o'zgaradi?

- A) ortadi B) kamayadi C) o'zgarmaydi D) keskin kamayadi

18. Massasi 18 kg bo'lgan muz qancha hajmni egallaydi? Muzning zichligi 900 kg/m³.

- A) 20 litr B) 20 m³ C) 20 dm³ D) 20 sm³

19. $\rho = 5 \text{ g/mm}^3$ zichlikni XBSda ifodalang.

- A) 50 kg/m³ B) 500 kg/m³ C) $5 \cdot 10^5 \text{ kg/m}^3$ D) $5 \cdot 10^6 \text{ kg/m}^3$

20. Berilganlardan zichligi eng katta bo'lgan moddani ko'rsating.

- A) Alyuminiy B) Po'lat C) Qo'rg'oshin D) Oltin

2-nazorat test javoblari

S	1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11	12	13	14
J	C	B	A	B	A	C	B	B	A	A	B	D	A	B

S	15	16	17	18	19	20
J	D	A	C	C	D	D

SANA: _____

NAZORAT ISHI №3

Nazorat shakli: Test o'tkazish.

1. Velosipedchi tekis harakat qilib, 40 m masofani 4 sekundda o'tdi. U xuddi shu tezlik bilan 10 sekundda qancha yo'l bosib o'tadi?

- A) 60 m C) 150 m B) 100 m D) 40 m

2. Tezlik qanday asbob yordamida o'lchanadi?

A) Tarozi B) Spidometr C) Menzurka D) Dinamometr

3. Mashina soatiga 80 km/soat tezlik bilan harakat qilmoqda. U 320 km yo'l bosib o'tgan bo'lsa, mashina qancha vaqt harakatlangan? (soat)

A) 320 minut B) 1,20 soat

C) 4 soat D) 4 minut.

4. Avtomobilning spidometriga qarab haydovchi 1440 km yo'l bosganini aniqladi. U butun yo'l davomida 16 soat harakatlangan. Avtomobilning tezligi qancha? (km/soat)

A) 90 km/soat B) 1440 km/soat

C) 16 km/soat D) 9 km/soat

5. Tezligi harakat trayektoriyasining turli qismida turlicha bo'lgan harakat deyiladi.

A) tekis harakat B) notekis harakat

C) egri chiziqli harakat D) to'g'ri harakat


6. Idish ichidagi suv bosimini turli nuqtalar uchun solishtiring?

A) $p_1=p_2=p_3=p_4$

B) $p_1<p_2<p_3<p_4$

C) $p_1<p_2=p_3<p_4$

D) $p_1>p_2=p_3>p_4$



7. Gidravlik press kichik porshenining yuzi 10 sm². Katta porshenining yuzi 100 sm². Kichik porshenga 10 N kuch bilan ta'sir qilinsa, katta porshendagi kuch qancha bo'ladi?

A) 1 N B) 10 N C) 100 N D) 1000 N

8. Jumlani davom ettiring. Kuchdeb nimaga aytiladi?

A)... moddaning birlik hajmiga to'g'ri kelgan massasiga;

B)... bir jismning ikkinchi jismga ta'siri tufayli tezligi yoki shakli o'zgarishiga sabab bo'ladigan kattalikka;

C)... jismlarning ish bajarish qobiliyatiga;

D)... jismlarning vaqt o'tishi bilan fazoda joylashgan o'rnini boshqa jismlarga

nisbatan o'zgarishiga aytiladi.

9. Kuch qanday asbobda o'lchanadi?

A) Tarozi B) Spidometr C) Menzurka D) Dinamometr.

10. Og'irlik kuchi 550 N bo'lgan bolaning massasi qancha?

A) 55 kg B) 550 kg C) 5,5 kg D) 65 kg

11. Massasi 4 kg va yuzasi 8 m² bo'lgan gilam polga qancha bosim beradi?

A) 0,5 Pa B) 0,05 Pa C) 5 Pa D) 50 Pa

12. Tabiatda kuchlarning turli ko'rinishda namoyon bo'lishini hayotiy misollarda tushuntirish.

✓ Og'irlik kuchi- _____

✓ Ishqalanish kuchi- _____

✓ Elastiklik kuchi- _____

✓ Tortishish kuchi- _____

✓ Elektr va magnit kuchi- _____

3-nazorat test javoblari

S	1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11
J	B	B	C	A	B	A	C	A	D	A	A

SANA: _____

4-NAZORAT ISHI

Nazorat shakli: Yozma ish

1-variant

1. Arximed qonuni va uning qo'llanilishi.

2. Massasi 50 kg bo'lgan bola har bir qavatining balandligi 2,5 m bo'lgan uyning 5-qavatiga chiqdi. Bola bajarga ishni hisoblang.

Berilgan. | Hisoblash

m=50 kg | $A = mgH, H = nh = 4 \cdot 2,5m = 10m$

h=2,5m | $A = 50kg \cdot \frac{10m}{s^2} \cdot 10m = 1000J$

n=4

A-?

3. Jismning havodagi og'irligi 196 N, kerosindagi og'irligi 180 N. Jismning hajmini toping.

Berilgan.

$$P_h = 196\text{N}$$

$$P_k = 180\text{N}$$

$$\rho_k = 800\text{kg/m}^3$$

V_j -?

Hisoblash

$$P_h = P_k + F_A, F_A = P_h - P_k = 196\text{N} - 180\text{N} = 16\text{N},$$

$$F_A = \rho_k V_j g, V_j = \frac{F_A}{\rho_k g} = \frac{16\text{N}}{800\text{kg/m}^3} = 0,02\text{m}^3 = 20\text{dm}^3$$

4. 10 km balandlikda 360 km/soat tezlik bilan uchayotgan samolyotning potensial energiyasi, uning kinetik energiyasidan necha marta ko'p.

Berilgan.

$$h = 10\text{km} = 10^4\text{m}$$

$$v = 360\text{km/h} = 100\text{m/s}$$

Hisoblash

$$W_p = mgh, W_k = \frac{m\vartheta^2}{2},$$

$$\frac{W_p}{W_k} = \frac{mgh}{\frac{m\vartheta^2}{2}} = \frac{2gh}{\vartheta^2} = \frac{2 \cdot 10 \cdot 10^4}{10^4} = 20 \text{ marta ko'p}$$

W_p/W_k -?

2-variant.

1. Ish va energiya haqida tushuncha.

2. Aravacha va undagi yuk massasi birgalikda 150 kg. Uni 500 N kuch ta'sirida 10 m ga siljitildi. Bajarilgan ish nimaga teng.

Berilgan.

$$M_1 + m_2 = 150\text{kg}$$

$$F = 500\text{N}$$

$$S = 10\text{m}$$

Hisoblash

$$A = Fs = 500\text{N} \cdot 10\text{m} = 5000\text{J}$$

A-?

3. Alyuminiydan yasalgan jism kerosinga botirilganda unga 136 N itarib chiqaruvchi kuch ta'sir qiladi. Jismning havodagi og'irligini toping.

Berilgan.

$$F_A = 136\text{N}$$

$$\rho_k = 800\text{kg/m}^3$$

$$\rho_{Al} = 2700\text{kg/m}^3$$

P_h -?

Hisoblash

$$F_A = \rho_k V_j g, V_j = \frac{F_A}{\rho_k \cdot g} = \frac{136\text{N}}{800\text{kg/m}^3 \cdot 10} = 0,017\text{m}^3$$

$$P_h = mg = \rho_{Al} V_j g = \frac{2700\text{kg}}{\text{m}^3} \cdot 0,017\text{m}^3 \cdot 10 = 459\text{N}$$

4. 10 km balandlikda 360 km/soat tezlik bilan uchayotgan samolyotning potensial energiyasi, uning kinetik energiyasidan necha marta ko'p.

Berilgan. h=10km=10 ⁴ m v=360km/h=100m/s	Hisoblash $W_p = mgh, W_k = \frac{m\theta^2}{2},$ $\frac{W_p}{W_k} = \frac{mgh}{\frac{m\theta^2}{2}} = \frac{2gh}{\theta^2} = \frac{2 \cdot 10 \cdot 10^4}{10^4} = 20 \text{ marta ko'p}$
W_p/W_k -?	

SANA: _____

NAZORAT ISHI №5

Nazorat shakli: Yozma ish o'tkazish.

1-qator

1. Qattiq jism, suyuqlik va gazlarda issiqlik uzatilishi haqida.

2. Massasi 78 kg sportchi chang`ida turibdi. Har bir chang`ining uzunligi 1,95 m, eni 8 sm. Sportchining qorga ko`rsatgan bosimi qanday(Pa)?

Berilgan. m=78kg l=1,95m s=8sm=0,08m	Hisoblash $P = \frac{F}{S} = \frac{mg}{l \cdot s} = \frac{78kg \cdot 10m/s^2}{1,95m \cdot 0,08m} = 5000Pa = 5kPa$
P-?	

3. Suv chiqaruvchi nasoslar o`rnatilgan binoda suv bosimi nasoslar yordamida hosil qilinadi. Agar nasos hosil qilgan bosim 400 kPa ga teng bo`lsa, suv qanday balandlikka ko`tariladi? $\rho_{\text{suv}}=1000 \text{ kg/m}^3$.

Berilgan. P=400kPa $\rho=1000\text{kg/m}^3$	Hisoblash $P = \rho gh, h = \frac{P}{\rho} = \frac{4 \cdot 10^5}{10^3} = 400m$
h-?	

2-qator

1. Tabiatda va turmushda issiqlik uzatishning namayon bo`lishi haqida.

2.Sportchi muzda konkida uchmoqda. Konkining uzunligi 30 sm, eni 4 mm. Sportchining massasi esa 50 kg bo'lsa, konkichining muzga beradigan bosimini toping.

Berilgan.

$$m=50\text{kg}$$

$$l=30\text{ sm}=0,3\text{m}$$

$$s=4\text{mm}=0,004\text{m}$$

P-?

Hisoblash

$$P = \frac{F}{S} = \frac{mg}{l \cdot s} = \frac{50\text{kg} \cdot 10\text{m/s}^2}{0,3\text{m} \cdot 0,004\text{m}} = 416\text{kPa}$$

3. Suv minorasining tubiga o'rnatilgan manometr 220 000 Pa bosimni ko'rsatgan. Minoradagi suv sathining balandligini aniqlang?
 $\rho_{\text{suv}}=1000\text{ kg/m}^3$.

Berilgan.

$$P=220000$$

$$P_a=22 \cdot 10^4\text{Pa}$$

$$\rho=1000\text{kg/m}^3$$

h-?

Hisoblash

$$P = \rho gh, \quad h = \frac{P}{\rho} = \frac{22 \cdot 10^4}{10^3} = 220\text{ m}$$

SANA: _____

NAZORAT ISHI № 6 **Nazorat shakli: Test**

1.Suyuqlik idish tubiga bergan bosimi nimaga bog'liq?

A) idishning yuziga

B) suyuqlikning kamligiga

C) suyuqlik zichligi va balandligiga

D) Shisha naylarning tuzilishiga .

2.Jism suzyapti. Og'irlik kuchi bilan Arximed kuchi qanday munosabatda?

A) $F_{og}=F_A=0$

B) $F_{og}<F_A$

C) $F_A=0 \quad F_{og}=0$

D) $F_{og}>F_A$

3.Normal atmosfera bosimi havoning temperaturasi qancha bo'lgan hol uchun belgilanadi?

A) 20°C

B) 10°C

C) 0°C

D) 36°C .

4.Suyuqlik va gazlardagi bosimni o'lchaydigan asbob?

A) Menzurka

B) Tarozi

C) Spidometr

D) Manometr

5. Stakandagi suv ustunining balandligi 8 sm. Suv stakan tubiga qanday bosm ko'rsatadi?

A) 800Pa

B) 80Pa

C) 8Pa

D) $0,8\text{Pa}$

6. Jismlar qanday elektrlanadi?

- A) Ikki jism bir-biriga tomon harakatlantirilganda
- B) Ikki jism bir-biriga ishqalanganda
- C) Ikki jism bir-biriga tekkizilganda
- D) Ikki jism birgalikda qizdirilganda

7. Shisha tayoqchani shoyiga ishqalanganda, tayoqcha qanday zaryadlanadi.

- A) Musbat ishorada zaryadlanadi
- B) Manfiy ishorada zaryadlanadi
- C) Hech qanday zaryadlar hosil bo'lmaydi
- D) Zaryadsizlanadi

8. Ebonit tayoqchani mo'ynaga ishqalanganda, tayoqcha qanday zaryadlanadi.

- A) Musbat ishorada zaryadlanadi
- B) Manfiy ishorada zaryadlanadi
- C) Hech qanday zaryadlar hosil bo'lmaydi
- D) Zaryadsizlanadi

9. Elektrni o'zidan o'tkazuvchi moddalar nima deb ataladi?

- A) Elektr o'tkazgichlar
- B) O'tkazmovchilar
- C) Dielektriklar
- D) Izolyatorlar

10. Quyidagi metallardan qaysi biri eng yaxshi o'tkazgich hisoblanadi?

- A) Kumush
- B) Aluminiy
- C) Mis
- D) Po'lat

11. Nima uchun benzin tashiydigan mashinalarda zanjir yerga tegib turadi?

- A) Suyuqlik ishqalanganda zaryadlar hosil qilish uchun
- B) Suyuqlik zaryadlanganda uchqun chiqaradi
- C) Suyuqlik qatlamlar ishqalanganda hosil bo'lgan zaryadlar yerga o'tib ketadi
- D) Zaryadlar hosil bo'lishi uchun

12. Shisha izolyator hisoblanib elektr tokini o'tkazmaydi. Shisha qanday holatda elektr tokini o'tkazadi?

Javob: Shisha tayoqchani shoyiga ishqalaganimizda u elektrlanib qoladi va elektr tokini o'tkazadi.

13. Torrichelli tajribasidan foydalanib tushuntiring. Nima uchun pipetka ichidagi suv to'kilib ketmaydi?

Javob: Atmosfera bosimi pipetkadagi suvning og'irligi beradigan bosim bilan tenglashgani uchun suv to'kilib ketmaydi.

14. Granit bo`lagi suvga butunlay botirilganda u $0,8 \text{ m}^3$ suvni siqib chiqaradi. Unga ta`sir qiluvchi itarib chiqaruvchi kuchni hisoblang.

Javob: $F=8 \cdot 10^3 \text{ N}=8 \text{ kN}$

15. Atmosfera bosimini o`lchaydigan asbobning nomini ko`rsating?

Javob: Barometr

6-nazorat test javoblari

S	1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11
J	C	B	C	D	A	B	A	B	A	A	C

SANA: _____

NAZORAT ISHI №7

Nazorat shakli: Test o`tkazish

1. Gapni to`ldiring. "O`zlaridan yorug`lik chiqaradigan jismlar" deb ataladi?

- A) ... yorug`lik qabul qilgichlar ; B) ...tabiiy manbalar ;
C) ...sun`iy manbalar; D) ... yorug`lik manbalari.

2. Yorug`lik qabul qilgichlar deb nimaga aytiladi?

- A) Elektr energiyani issiqlik energiyasiga aylantirish;
B) Yorug`lik energiyasini boshqa tur energiyaga aylantiruvchi;
C) Yorug`likni qayd qiluvchi qurilmalar;
D) Yorug`lik ta`sirida ishlaydigan jismlar.

3. Yorug`lik bir jinsli shaffof muhitda qanday tarqaladi.

- A) Yarim aylana bo`ylab B) Aylana bo`ylab
C) Egri chiziq bo`ylab D) Tog`ri chiziq bo`ylab

4. Yorug`lik tezligini birinchi marta nechanchi yil qaysi olim aniqlagan?

- A) 1849 yilda fransuz fizigi Fizo B) 1676 yilda italiya olimi G.Galiley
C) 1862 yilda fransuz fizigi L Fuko D) 1676 yilda daniyalik olim Olaf Ryomer.

5. Gapni davom ettiring. Tushish burchagi deb... ga aytiladi?

- A) ...tushgan nur bilan, nur tushgan nuqtaga o`tkazilgan perpendikulyar orasidagi burchak

B) ...qaytgan nur bilan, nur tushgan nuqtaga o`tkazilgan perpendikulyar orasidagi burchak

C) ...qaytish burchagi har doim tushish burchagiga teng

D) ...singan nur bilan sinish nuqtasiga o`tkazilgan perpendikulyar orasidagi burchak

6. Quyosh nuri Yerga necha minutda yetib keladi.

A) 8 minutda

B) 8,3 minutda

C) 8,3 sekundda

D) 8 sekundda

7. Gapni davom ettiring. Sinish burchagi deb... ga aytiladi?

A) ...tushgan nur bilan, nur tushgan nuqtaga o`tkazilgan perpendikulyar orasidagi burchak

B) ...qaytgan nur bilan, nur tushgan nuqtaga o`tkazilgan perpendikulyar orasidagi burchak

C) ...qaytish burchagi har doim tushish burchagiga teng

D) ...singan nur bilan sinish nuqtasiga o`tkazilgan perpendikulyar orasidagi burchak

8. Gapni davom ettiring. Qaytish burchagi deb... ga aytiladi?

A) ...tushgan nur bilan, nur tushgan nuqtaga o`tkazilgan perpendikulyar orasidagi burchak;

B) ...qaytgan nur bilan, nur tushgan nuqtaga o`tkazilgan perpendikulyar orasidagi burchak;

C) ...qaytish burchagi har doim tushish burchagiga teng;

D) ...singan nur bilan sinish nuqtasiga o`tkazilgan perpendikulyar orasidagi Burchak.

9. Oy yer atrofida qancha vaqt davomida bir marta aylanib chiqadi?

A) 26 sutkada;

B) 26 sutkada 7 soat 43 minut;

C) 27 sutkada ;


D) 27 sutkada 7 soat 43 minutda.

10. Soya nima sababdan paydo bo`ladi?

A) Yorug`lik to`g`ri chiziq bo`ylab tarqalganligi uchun ;

B) Yorug`lik o`z yo`nalishini o`zgartirganligi uchun ;

- C) Yorug`lik egri chiziq bo`ylab tarqalganligi uchun;
 D) Yorug`lik to`siqni aylanib o`tganligi uchun.
11. Quyosh tutulishi nima uchun sodir bo`ladi?
 A) Quyosh bilan yer oralig`idan boshqa sayyoralar o`tadi;
 B) Yer va Quyosh oralig`iga Oy tushib qolgan vaqtda;
 C) Oy bilan Quyosh orasiga Yer tushib qolgan vaqtda;
 D) Quyosh bilan Oy oralig`idan boshqa sayyoralar o`tadi.
12. Oy tutulishi nima uchun sodir bo`ladi?
 A) Quyosh bilan yer oralig`idan boshqa sayyoralar o`tadi ;
 B) Yer va Quyosh oralig`iga Oy tushib qolgan vaqtda;
 C) Oy va Quyosh oralig`iga Yer tushib qolgan vaqtda;
 D) Quyosh bilan Oy oralig`idan boshqa sayyoralar o`tadi .
13. Spektrda nurlarning ketma-ket joylashishi tartibini yozing.



- ✓ Qizil
- ✓ Zarg`aldoq
- ✓ Sariq
- ✓ Yashil
- ✓ Havorang
- ✓ Ko`k
- ✓ Binafsha

14. Kamalak qanday paydo bo`lishini tabiiy misollarda tushuntirish.
 Masalan: Kamalak yomg`ir tomchilari xuddi prizma kabi nurlarni qaytarishi va undan sinib o`tishi sababli paydo bo`ldi.

15. Bu jumlar qaysi allomalarga tegishli.

“Quyosh nuridagi mavjud haroratning sababi haqida ba`zilar bunga sabab desalar, ba`zilar esa nur aksi- burchaklarining o`tkirliigi sabab deganlar. Unday emas, balki nurning o`zida harorat mavjud”- deyilar. Bu fikr Quyoshdan Yerga issiqlik nurlanish tufayli kelishini isbotlaydi.

Javob: Beruniy

7-nazorat test javoblari

S	1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11	12
J	D	D	D	D	A	B	D	B	D	A	B	C

SANA: _____

NAZORAT ISHI №8

Nazorat shakli: Test o`tkazish.

1. Nuqtalar o`rniga mos so`zni topib qo`ying. "Fizikada tovush hodisalarini o`rganadigan bo`limi....." deb ataladi?
A)....mexanika B)akustika
C).....optika D)kinematika.
2. Bir sekundda yuz bergan to`la tebranishlar sonideb ataladi?
A).....davr B)....burchak
C).....chastota D)... radian
3. Infratovushlarning chastota diapazonini ko`rsating?
A) 100-2000 Hz B) 16 Hz dan kichik
C) 20000 Hz dan yuqori D) 2000-20000 Hz
4. Kamertonga o`rnatilgan rezonator nima vazifani bajaradi?
A) Ovoz hosil qilish B) Ovozni kuchaytirish
C) Ovozni qabul qilish D) Tonini o`zgartirish
5. Tovush tarqalishi nimaga bog`liq?
A) Muhitga B) Vaqtga
C) Tezlikka D) Tovush balandligiga
6. Temperaturasi 20°C ga teng bo`lgan havoda tovush qanday tezlik bilan tarqaladi?
A) 331 m/s B) 340 m/s
C) 343 m/s; D) 234 m/s
7. Qaysi qatorda ayollar chiqaradigan ovoz nomlari keltirilgan?
A) Bas, bariton, tenor B) Bas, bariton, kontralto
C) Soprano, kontralto, messo-soprano
D) Tenor, koloratur soprano, messo-soprano
8. Tovush qattiqligini qanday birlikda o`lchanadi?
A) Gers B) Bell
C) Detsibel D) Sekund
9. Tovush balandligi nimaga bog`liq?
A) Tembrga B) Chastotaga
C) Vaqtga D) Muhitga
10. Ovoz chiqayotganda shamol esmoqda. Shamol tezligi 25 m/s. Ular qarama-qarshi yo`nalishda bo`lsa, natijaviy tezlik nimaga teng bo`ladi? Tovushning havodagi tezligi 330 m/s.

- A) 330 m/s B) 355 m/s
C) 305 m/s D) aniqlab bo'lmaydi

11. Aks sado eng ko'p marta qaytariladigan joyini ko'rsating.

A) Angliyadagi Vigstok qasrida B) Galbershtad yaqinidagi Derenburg qasrida

C) Adersbax yaqinidagi qasrida D) Milan yaqinidagi qasrida

12. "Tovushni yutish koeffitsientini topish uchun materiallarga ...kerak". Nuqtalar o'rniga to'g'risini topib qo'ying.

A). ... yutilgan tovush energiyasini, tushgan tovush energiyasiga bo'lish....

B) yutilgan tovush energiyasini, tushgan tovush energiyasiga ko'paytirish...

C).... yutilgan tovush energiyasini, tushgan tovush energiyasiga qo'shish...

D). ... yutilgan tovush energiyasidan, tushgan tovush energiyasini ayirish ...

13. Infratovushlarning chastota diapazonini ko'rsating?

A) 100-2000 Hz B) 16 Hz dan kichik

C) 20000 Hz dan yuqori D) 2000-20000 Hz

14. Exolot qanday asbob?

A) Tovush tembrini o'lchaydigan asbob.

B) Tovush balandligini o'lchaydigan asbob

C) Tovush qattiqligini aniqlaydigan asbob

D) Suv havzalarining chuqurligini tovush aks -sadodan foydalanib o'lchaydigan asbob

15. Me'morchilik akustikasi nima bilan shug'ullanadi?

Javob: *Binolarni loyihalashda*

16. Tovush tembrini nimalarga bog'liq?

Javob: *Obertonlar soniga, kuchiga, tovush chastotasiga va balandligiga.*

17. Kamertonni kim va qachon ixtiro qilgan?

Javob: *1711 yilda J. Shorom*

18. Ultratovushlar deb nimaga aytiladi?

Javob: *Chastotasi 20000 Hz dan katta bo'lgan tovushlar.*

19. Tovushning qattiqligi qanday kattalik bilan o'lchanadi?

Javob: *Bell*

20. Aks-sado qachon hosil bo'lmaydi?

Javob: *Qattiq jismlardan qaytganda*

8-nazorat test javoblari

S	1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11	12	13	14
J	B	C	B	B	A	C	C	C	B	C	D	A	B	D

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. 6-sinf Fizika darsligi, N. Sh. Turdiyev, qayta ishlangan uchinchi nashri, Toshkent 2017 y.
2. A. Boydedayev, A. Bahromov, S. Burxonov, Fizika 7-sinf uchun darslik, qayta ishlangan to'rtinchi nashri, Toshkent 2017 y.
3. P. Habibullayev A. Boydedayev, A. Bahromov Fizika 8-sinf uchun darslik, qayta ishlangan uchinchi nashri, Toshkent 2019 y.
4. P. Habibullayev, A. Boydedayev, A. Bahromov Fizika 9-sinf uchun darslik, qayta ishlangan uchinchi nashri, Toshkent 2019 y.
5. N. Sh. Turdiyev, K.A.Tursunmetov, A.G.Ganiyev, K.T. Suyarov, J.E.Usarov, K.A.Avliyoqulov Fizika 10-sinf uchun darslik, 1-nashri, Toshkent 2017 y.
6. N. Sh. Turdiyev, K.A.Tursunmetov, A.G.Ganiyev, K.T. Suyarov, J.E.Usarov, K.A.Avliyoqulov Fizika 11-sinf uchun darslik, 1-nashri, Toshkent 2018 y.
7. A. Yususpov, R. Yusupov., Fizikadan savol va masalalar 6-7, Toshkent 2000 y.
8. V.P.Demkovich, Fizikadan savol va masalalar, S. Tursunov tarjimasi, Toshkent 1971 y.
9. S.E.Frish, A.V.Timoreva, Umumiy fizika kursi. I-jild, M. Vohidov tarjimasi, Toshkent 1965 y.
10. S.E.Frish, A.V.Timoreva, Umumiy fizika kursi. II-jild, M. Vohidov tarjimasi, Toshkent 1972 y.
11. N.A. Rodina, Yorug'lik hodisalari, Toshkent 1988y.

Internet resurslar

1. <http://www.Ziyonet.uz>
2. <http://www.eduportal.uz>
3. <http://www.Kitob.uz>

Mundarija

Kirish	3
Nazorat ishi №1	4
Nazorat ishi №2	7
Nazorat ishi №3	9
Nazorat ishi №4	11
Nazorat ishi №5	13
Nazorat ishi №6	14
Nazorat ishi №7	16
Nazorat ishi №7	19
Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati	22

Amirullayeva B

Fizika fanidan VI sinfda nazorat ishlari yechimi

Texnik muharrir *Abdullayev F.*

Terishga berildi: __.__.2021 y.

Bosishga ruxsat berildi: __.__.2021 y

Ofset bosma qog'oz. Qog'oz bichimi 60x84 ^{1/16}.

«Cambria» garniturasida. Ofset bosma usuli.

1,5 bosma taboq Adadi: 50 nusxa. Buyurtma № __/21

Samarqand viloyati Samarqand viloyat xalq ta'limi xodimlarini qayta tayyorlash
va ularning malakasini oshirish hududiy markazi bosmaxonasida chop etildi.

Samarqand shahar, Obidinov ko'chasi 7-uy.

